


NAVOIY KON-METALLURGIYA
KOMBINATI KUTUBXONASIDAN

Quyoshliq istasang, kasbi kamol et...



Alisher Navoiy
tavalludining
580 yilligiga
bag'ishlanadi

SAHHOF
2021



Loyiha muallifi:
Quvondiq SANAQULOV

Mas'ul muharrir:
Olim Davlatov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi:
Tohir Xo'jayev – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

To‘plovchilar:
*Xolmamat Raupov, Baxtiyor Mardonov, Sanjar Radjabov,
Abdumajid Jo‘rayev, Nilufar Ernazarova, Azamat Zaripov,
Feruza Ravshanova, Maftuna Ochilova.*

O‘zbek xalqi ma’naviy taraqqiyoti, millatni millat sifatida ko‘rsatish va insoniyat tafakkur dunyosining shakllanishiga beباho xizmati singgan ulug‘ zotlardan biri, bu – Alisher Navoiy bobomizdir. Buyuk mutafakkir bobomiz ijodidan saralangan, keng jamoatchilik va yoshlarga mo‘ljallab nashrga tayyorlangan ushbu to‘plam siz, qadrli kitobxonlarga ham manzur bo‘ladi, degan umiddamiz.

ISBN 978-9943-6666-0-3


© “Sahhof” nashriyoti, 2021
© Navoiy kon-metallurgiya kombinati, 2021





Mutafakkir shoirimizning “Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”, degan satrlarida qanchalik chuqur ma’no bor. Ya’ni, bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliv mezonidir. Xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘sib bo‘lmaydi, deb uqtirmoqda ulug‘ bobomiz.

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



NAVOIYGA EHTIROM

*A*lisher Navoiy – xalqimizning sevimli shoiri, jahon xalqlari e’tirof etgan buyuk inson.U kishining madaniyat, siyosat, obodonchilik, ayniqsa, ilm va badiiy ijod sohasida amalga oshirgan ishlari hammani hayratga soladi va ayni paytda shoirimizga bo‘lgan chuqur hurmat va e’zoz hislarini uyg‘otadi. Navoiyning she’riyat, nasr, tarix, din, tasavvuf, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, davlat arbobi sohasidagi faoliyati har bir kitobxonga ibrat bo‘la oladi. Hayotini faqat va faqat ijodga, mehnatga, xalq va yurt farovonligiga baxshida etgan ulug‘ shoirimiz bugungi kunda ham, o‘z davrida ham yuksak bahoga sazovor bo‘lgan edilar.

Shoh va shoir Husayn Boyqaro Alisher Navoiyi “so‘z mulkining sohibqironi”, “din-u davlat arboblarining sarasi”, “saltanat ustuni”, “mulk-u millat egalarining yetakchisi” deya ehtirom bildirsa, Mirzo Bobur “Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi” deb ta’riflaydilar. Davlatshoh Samarqandiy ulug‘ shoirimizga “din-u davlat homiysi”, “shariat hamda millatning pushti panohi”, “fazilat bobida jahon sarvari”, “sheri haq” bahosini, Xondamir “sharaf va ulug‘lik osmonining quyoshi, dunyo buyuklarining peshvosi”, “yaxshi xulqlar manbai”, Abdurahmon Jomiy esa, “bizning zamonamiz bu sohibdavlat vujudi ila musharraf”, “nizomul millat va din”, deya izzat-ikrom bildirdilar. Bu ta’riflarni yana davom ettirish mumkin. Lekin bunchalik ulug‘lashning boisi nima? Ulug‘ shoirimizni qayta-qayta, takror-

takror vasf etishimizning asosi qayerda? Bu savollariga Navoiy shaxsiyati, uning turli sohalardagi faoliyati, she’riy, nasriy, umuman, barcha asarlari bilan tanishish orqali aniq javobga ega bo‘lamiz.

Xondamir Navoiyni “ilhomilohiy” deydi. Bu shoirdagi chashmadek uyg‘oq ilhom, benazir iste’-dodning ilohiy ekanligi, Ollohdan tekkan muqaddas inoyatga sazovorlik ifodasi. Zero, busiz 45 000 misradan ortiq “Xazoyin ul-maoniy”, 52 000 misradan ortiq “Xamsa”, “Devoni Foniy”, “Lison ut-tayr”, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, din, tasavvuf, odob-axloq sohalariga oid “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”, “Nazm ul-javohir”, “Arba’in”, “Mahbub ul-qulub”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Vaqfiya” kabi ko‘plab asarlarni yaratish va yana bu ishlarni davlat tashvishlaridan ajralmagan holda olib borish tasavvurga sig‘mas darajada imkonsiz bo‘lardi.

Bu yil ulug‘ shoirimiz tavalludining 580 yilligi keng nishonlanadi. Mazkur sanani yuksak darajada nishonlash uchun Prezident qarori qabul qilindi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil may oyida Adiblar xiyobonida ijodkorlar bilan bo‘lgan uchrashevda bir qancha vazifalarni belgilab berdilar. Ana shulardan biri – kitobxonlarga Navoiy asarlarini sodda, tushunarli tilda sharhlab berish, shoirimizni, u kishining asarlarini o‘quvchilarga yaqinlashtirish, targ‘ib etish, o‘qishga qiziqish uyg‘otishdan iborat edi.

Shu jihatdan Navoiy kon-metallurgiya kombinati direktori, senator, O‘zbekiston Qahramoni Quvondiq Sanaqulov tomonidan Navoiyning mashhur g‘azal,



ruboiy, qit'a, hikmatli bayt, ibratli fikr, hikoyat va shoirga berilgan baholar jamlangan kitobchani tay-yorlash haqidagi loyihani taklif etishlari yuksak e'tirofga sazovordir. Zero, Navoiyni sevgan, ko'nglida ulug' shoirga yuksak muhabbat bo'lgan, O'zbekiston kelajagiga befarq bo'lman, yoshlar taqdiri uchun qayg'uradigan insongina bunday xayrli, saxovatli ishga tashabbuskor bo'la oladi.

Ulug'lar yaxshi nom qoldirishni ikkinchi umr dey-dilar. Vatan dovrug'i, yurt obodligi, xalq farovonligi, ilm ravnaqi uchun fidokor bo'lgan kishilar ana shu muqaddas sharafga ega bo'ladilar. Navoiy hazratlarning mana bu mashhur baytlari hammamizni ana shu hikmatni doimo esda tutishga o'rgatadi:


*Bu gulshan ichra chu yo 'qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.*

Ushbu mo'jazgina kitobchaning chop etilishi bar-cha kitobxonlar, ayniqsa, yoshlar, talabalarni behad xursand qilishi, shubhasiz. Kitobdagagi misralar kitobxonlarning qalbida Navoiyga muhabbat, ularning ko'nglida insoniylik, yaxshilik tuyg'ularini uyg'otishi asosiy maqsadimiz.

Navoiyning barcha ixlosmandlari nomidan ushbu kitobchani nashr ettirishga hissa qo'shgan ilmparvar-larga minnatdorchilik bildiramiz.

Tohir XO'JAYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent







Alisher Navoiy buyuklar nazdida

Do'st bilan agar topishsa do'st-yor,
Orzular daraxti bo'lur hosildor.

*Umid ganjinasin kalididir yor,
Farog'atli hayot hamdamidir yor.*

*Yashamoq maqsudi erur yor, bil,
Bu ishning yorsiz bekor, bil.*

*Avvali hayotdan topgunga barham,
Parvoz eta olmas yolg'iz qush bardam.*

*Xullas, oshnolik, do'stlik bog'ida,
Navoiy nag'masoz vafo shoxida.*

*Ya'niki, Navoiy lutf etgay,
Shikastalar ko'nglin ovutgay.*

*Bundan soz ish bo'lganmi zinhor?
Bu do'stning fidosi bo'lsin do'st-u yor.*

Abdurahmon Jomiy





Bu ulug‘ amirning maqbul tabiatи va muloyim unsuri sulton janoblariga yaqinlik, musulmonlarning muhim ishlariga kafillik, shariat-u sunnat, mulk-u millat ishlarini ravmaq ettirish bilan band bo‘lsa-da, hamma vaqt fazilat orttirish, ilm bilan mashg‘uldir. Uning ham-suhbatlari xushta‘b, fozil kishilardir. Uning maqbul xotiri ahli dildan boshqani istamas, og‘ir tabiatlilar uning himmat nazariga yengiltak bo‘lib ko‘rinar, balki noahillar uning latif majlislariga kirolmasdilar...

Ulug‘ amirning turkiy devoni sultonlar, aslzodalar majlisi bezagidir. Navosi navo ohangida ushshoqi benavolarni to‘g‘ri yo‘lga solib qo‘yadi. Muxoliflar uning qalami g‘ijirlashidan mag‘lib, xusravoniy ohangi Sulton Husaynga mahbubdir. Qanday yaxshiki, uning ovozasi turklar mamlakatidan Hijozgacha... dovrug‘i Nishopurdan Isfahongacha yetdi. Ajam mamlakati ahli qulog‘iga bu sadodan sirg‘a taqib, olamning hamma burchaklari bu daryo gavhari bila to‘lib toshgandir. Tong nasimi uning xabarini Iroqqa yetkazdi va Tubi daraxti barglari ni bu nihol shoxchalariga yopishtirdi...

Davlatshoh Samarqandiy





... *O*tkir ko'z egalarining huzurida maxfiy va yashirin qolmasinki, sharaf va ulug'lik osmonining qu-yoshi, dunyo buyuklarining peshvosi, yaxshi xulqlar manbai... ilm va irfon egalarining namoyandası, tahqiq va ishonch ahillarining qiblasi, xoqon davlatining tayanchi va hazrati sultonning yaqini, faqirlilikka boy-u, himmatga botir, oliv hazrat nizomulhaq val haqiqat vaddunyo vaddin amir Alisherning... uzluksiz mehribon-chiliklari shu'lasi, iltifot va g'amxo'rliklari oftobi Xondamir deb shuhrat qozongan bu faqir banda va haqir zarra G'iyosuddin ibn Humomuddin boshiga toblandi, balki vujudining niholi yosh chog'idan to yigitlik davrining oxiriga qadar ul hazratning lutf-u ehson ariqlari yoqasida o'sib, undi.

Xondamir





Alisherbek tengi yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi "Xamsa" javobida, yana biri "Mantiq ut-tayr" vaznida "Lison ut-tayr" otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: "G'a-royib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-va-sat", "Favoyid ul-kibar" otliq, yaxshi ruboiyoti ham bor.

Bobur



Suxanvarlik mamlakatining insof masnadi, adolat bayrog'ini baland ko'taruvchi va zulm alomatlarini yo'qotuvchi... Nizomiddin Mir Alisherning zoti bezandi, bilim arbobining gulzori nomurodlik tikanidan tozalanadi, aql va fikr ahllarining tilak daraxtlari uning (Alisherning) in'om buluti yomg'iridan yashnab ketdi, fazl egalarining iqbol nihollari uning yordam bog'i shabadasi bilan meva berishga kirishdi...

Mirxond



*Turk-u Ajam-u Arabda ayyom,
 Har shoira ver mishdi bir kom,
 O'lmishdi Navoiyi suxandon,
 Manzuri shahanshohi Xuroson.*

Fuzuliy

*Chor kitobdan tura qochdim,
 Navoiydan savod ochdim,
 Fuzuliydan durlar sochdim,
 Dilbarlarni izlar erdim.*

Berdaq



*Navoiydek daholarning ijodi konga o'xshaydi.
Ularni qanchalik chuqur talqin qilsang, shunchalik ko'p
nodir va bebaho xazinani kashf etasan.*

G.Sevuns

Alisherning o'lmas misralarida shohona qasrlar emas, balki cho'lga obi-hayot keltirish tarannum qilingani bejiz emas edi.

E.Mejelaytis

Eng avvalo, uning ajoyib, ko'p qirralilagini qayd qilamiz: dono siyosiy olim, mutafakkir, naqqosh, musiqa-chi, tengsiz so'z san'atkori. Madaniyatning unga begona bo'lgan sohasi topilmaydi. Faqat Gyote, Pushkin kabi beqiyos katta daho egalarigina shunday har taraflama iste'dod egalari bo'lganlar, bu ko'p taraflamalik shuni ko'r-satadiki, insonga oid hech narsa unga begona emas edi.

Y.E.Bertels





Alisher Navoiy umuminsoniyatga tegishli. Chinakam shoirning ijodi – insoniy madaniyat iqlimida toza havodek gap. Navoiyning haqqoniy she’riyati yurak va onglarimiz nafas olayotgan zaharlangan havoni bugun ham tozartirib turibdi.

O‘.Sulaymonov



O‘zbek adabiyoti tarixining ravnaqi olim va shoir Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq, uning she‘r va dostonlari o‘zbek she‘riyatinigina emas, balki butun O‘rta Osiyo adabiyotini yuksaklikka ko‘targan asarlardir. Buyuk daho ijodining bosh mavzusi – Vatanga muhabbat, mehnatga sadoqat, axloqiy yuksaklikka intilish, shaxs erkinligi va haqiqiy insoniy sevgidir. “Xamsa” o‘zining g‘oyalarga boyligi bilan, obrazlarning to‘laqonligi bilan jahon adabiyotining durdonalaridan hisoblanadi.

G.Dudek





Alisher Navoiy buyuk shoir, u haqda biror bema'ni gap aytib qo'yishdan qo'rqaman. Navoiyning ming yillarga tatirli ahamiyati bor. Ayni chog'da, u bizga har kuni kerak. Uning she'riyati mashaqqatlarni yengib o'tishning va muhabbatning yorqin timsolidir. Men o'zimning "Shoyad" dostonimni o'qiyotganimda ko'z o'ngimda Alisher Navoiy yaratgan oshiq-ma'shuq qad rostlab turgan edilar. Toki oshufta qalblarning buyuk muhabbat barhayot ekan, muhabbat ham abadiy barhayotdir.

Andrey Voznesenskiy



*Miri donishvari xiradpesha,
Doimash dar avoqib andesha.
Shoire dar nihoyati tahqiq,
Mushikofe ba g'oyati tadqiq.
She'ri u buvad beshtar turki,
Ki nabudash nazir dar turki.
Dar baru bahr ismi u manshur,
Hamchu nomash kamoli u mashhur.*

Kamoliddin Binoiy





*Alisher... ajoyib davlat arbobi, mohir sarkarda,
o'tkir va sermahsul adib sifatida mashhur bo'ldi. U vafot
etganidan beri oradan uch yarim asr o'tib ketgan bo'lsa
ham, ammo uning asarlari har bir o'zbek xonadonida
xazina kabi qadrlanadi.*

Herman Vamberi



Navoiy o'zining siyosiy va ijtimoiy faoliyati bilan xalqqa nihoyat darajada manzur bo'ldi. U o'z she'riyati tufayli xalq orasida chinakam zo'r obro' qozondi. Qobuldan tortib Farg'onan, Ozarbayjon, Qrimgacha, turkiy xalqlar yashab turgan o'lkalarning hammasida uning she'riyati asrlardan beri yashab kelmoqda.

Alfred Kurella





Alisher Navoiy jamiki go'zalliklarning buyuk homiysi va o'z davrining eng ulug' shoiridir.

Yan Ripka

Adiblar, tarixchilar, mufassirlar, inshopardozlar, muammo yozuvchilar, xattotlar, musavvirlar, kotiblar, me'morlar, riyoziydonlar, siyoqnavislar, shatranjbozlar, musiqashunoslar, pahlavonlar, zargarlar, kulollar, kamongarlar (kamon va o'q-yoy yasovchilar), tikuvchilar va o'sha davrdagi boshqa turli-tuman bilim, san'at va hunar sohiblari, mutaxassislari Amir Alisher huzuriga to'plani-shib, o'sha zamon ilmi, talabi va uslubiga binoan asarlar yozishar edilar. Amir Alisher o'shalarning hammasiga zo'r haf salsa, qunt va e'tibor bilan maslahatlar berar, husnrag 'bat ko'rsatar hamda ularga homiylik qilar edi.

Said Muhammad Abdulloh





XV asrning oxirida temuriylar sultanatining madaniy hayotiga juda muhim ta'sirini o'tkazgan inson Mir Alisher Navoiy bo'lib, u yangi siyosiy va iqtisodiy sharoitni yaratishda g'oyat katta yordam berdi. Sulton Husaynning "ko'kaldosh" (birga o'sgan) va yaqin do'sti Mir Alisher muhtojlarga xayr-u ehson qiluvchilarining mashhuri, shoir va olim edi.

Tomas Lente, Gleni Louvri



Alisher Navoiy dong'i ketgan buyuk shoirigina emas, o'z davrining keng ma'lumotli kishisi, fan va san'atning turli sohalarini asosli egallagan olim va mutafakkir, eng hushyor, eng tadbirdi va davlatning istiqbolini ko'ra biluvchi keng qarashli bir siyosatchi ham edi.

Oybek



*Kitobing kirmagan o'zbek elida xonadon yo'qdir,
Ruboiy kuylaring yod bilmagan bir jonajon yo'qdir,
Yetuk avlodlarining ilm-u donishli, gumon yo'qdir,
Bashar tarixini yuz bor o'qi, bunday zamon yo'qdir,
Ko'ngillarni yoritdik ma'rifatdan mohitob aylab.*

G'afur G'ulom





O'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy jahon adabiyotining buyuk san'atkorlaridandir. Uning nomi va merosi Homer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa'diy va Jomiy, Shekspir va Balzak, Pushkin va Tolstoy, Rabindranat Tagor va Lu Sin kabi ulkan so'z san'atkorlarining nomi va merosidek o'lmasdir.

N.Mallayev



O'zbek xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o'lmas "Xamsa" tarkibidagi dostonlari, beqiyos "Xazoyin ul-maoniy"ni tashkil etgan she'riyati, o'n to'rt nomdag'i nasriy asarlari bilan adabiyotimizni boyitgan, uni jahon adabiyoti yuksakligiga ko'targan, ilg'or bashariyatning madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo'shgan ijodkordir.

S.G'aniyeva



"Uhfat ul-askor" qasidasasi Alisher Navoiyning shoh asarlaridan biri bo'lib, unda abadul-abad ahamiyatini yo'qotmaydigan, hamisha dolzarb g'oyalar ifoda etilgan.

N.Komilov





Adabiy asarning qiymati, o'qishli va o'qishli emasligi birinchi navbatda uning qanday uslub bilan yozilishiga bog'liq. Alisher Navoiy asarlari besh asrdan buyon xalqimiz tomonidan sevib o'qilib kelinayotgan ekan, demak, bu asarlar yaxshi uslub bilan insonga farah bag'ishlaydigan shakl va ohanglarda yaratilgan. Xoh uning she'r va dostonlari bo'lsin, xoh nasriy asarlari, xoh ilmiy asarlari, xoh tarixiy asarlari bo'lsin, ularni o'qigan har qanday kitobxon ulardan ma'naviy ozuqa oladi, rohatlanadi.

A.Hayitmetov



Navoiy muqaddas kitoblardagi olamshumul fikrlardan o'z badiiy asarlarida barakali istifoda etib, islam ta'limotining ommalashishiga, ravnaq topishiga o'zining beqiyos ulushini qo'shgan. Islom dini asoslari Navoiy asarlarining badiiy-falsafiy jihatdan barkamolligini ta'minlagan.

M.Mirzaahmedova





*Baytingga bir bora qovushgan har lab,
Takrorlab ketgusi mahshargacha to.*

*Qaratib turibsan bu yon, ne ajab,
Milliard martabali jahonni hatto.*


A.Oripov

*Alisher Navoiy dostonlar va nasriy asarlarini
asosan umrining so'nggi yigirma yillarida yaratgan bo'l-
sa, lirik she'rlarini butun ongli hayoti davomida yozgan.
Demak, shoir hayotidagi ruhiy kechinmalar o'sha davr-
ning murakkab siyosiy, ijtimoiy hayotidagi turli-tuman
voqealari salarga bo'lgan munosabati xuddi aynan lirik
she'rlarida o'z ifodasini topgan.*

F.Sulaymonova

(“Mangulikka muhrlangan mutafakkir” kitobidan:
Tuzuvchi M.Matmuradova; – T.: Alisher Navoiy nom.
O'zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2006. 21–31-betlar)







Gazallar



Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to'tiy takallum shakkaristondin judo.

Ul quyosh hajrinda qo'rqarmen falakni o'rtagay,
Har sharorekim, bo'lur bu o'tlug' afg'ondin judo.

Dema, hijronimda chekmaysen fig'on-u nola ko'p,
Jism aylarmu fig'on bo'lg'ach nafas jondin judo?

Hajr o'lumdin talx emish, mundin so'ng,
ey gardun, meni
Aylagil jondin judo, qilg'uncha jonondin judo.

Bo'lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag'il
Yorni mendin judo yoxud meni ondin judo.

Vasl aro parvona o'rtandi hamono bildikim,
Qilg'udekdur subh ani sham'i shabistondin judo.

Bir eyasiz it bo'lub erdi Navoiy yorsiz,
Bo'imasun, yo Rabki, hargiz banda sultondin judo.





Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg'a ayt,
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimg'a ayt.

Buki la'li hasratidin qon yutarmen dam-badam,
Bazmi aysh ichra labolab bodaoshomimg'a ayt.

Kom talx-u boda zahr-u ashk rangin bo'lg'anin
La'li shirin, lafzi rangin, sho'xi xudkomimg'a ayt.

Shomi hijron ro'zgoring tiyra nevchun qildi deb,
So'rmag'il mendin bu so'zni,
subhi yo'q shomimg'a ayt,

Ul pari hajrida nang-u nomkim, tark ayladim,
Ko'ngul otlig' hajr vodiytsida badnomimg'a ayt.

Ey karomatgo'y, ishim og'ozi xud isyon edi,
Sham'i rahmat partavi yetkaymu anjomimg'a, ayt.

Yo'q Navoiy bedil oromi g'am ichra, ey rafiq,
Holini zinhorkim, ko'rsang, diloromimg'a ayt.





Voykim, dushmandek o'ldi ahididin begona do'st,
Dushmanim o'ltursa, ahd ettimki,
tutmay yona do'st.

Sog'arimda zahr-u sahra uzra po'yam shiddatin
Bilmas ulkim, bor anga hamkosa-vu hamxona do'st.

Jon qushi o'rtandi sevgach yorning o'tlug' yuzin,
Naylagay kuymay, chu bo'lg'ay
sham ila parvona do'st

Vodiyi hijronda ag'yorig'a yor o'ldum, ne tong
Gar bo'lur g'uli biyoboniy bila devona do'st.

Do'stluq jonondin istarmen, manga olam eli
Dushmani jon bo'lsa bo'lsun, bor esa jonona do'st.

Ahli din paymonshikandur, qilsa bo'lmas do'stluq,
Bas manga mug' dayrida ulkim,
tutar paymona, do'st.

Zulfig'a tushsa Navoiy xoli shavqidin ne tong,
Domdin yo'q chorasi har qushki, bo'lg'ay dona do'st.





Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,
Sham ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach?

Tiyg' ila paykonlaring yetti ko'ngul bo'lg'och xarob,
Suv qo'yub tuxm ekting, ul kishvarni vayron aylagach.

Qon emaskim, yopti gulgun hulla jannat xozini,
Ishq maqtulin shahid aylarda uryon aylagach.

Oshkor aylab yuzin ko'zumni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko'ngul ko'zumni hayron aylagach.

Jong'a qo'yg'ach naqqdi ishqning qildi ko'nglumni halok,
O'lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Ey Navoiy, ishq agar ko'nglungni majruh etmadni,
Bas nedurkim, qon kelur og'zingdin afg'on aylagach?!





Ko'zung ne balo qaro bo'luptur,
Kim, jong'a qaro balo bo'luptur.

Majmu'i davoni dard qildi
Dardingki, manga davo bo'luptur.

Ishq ichra aning fidosi yuz jon,
Har jonki, sanga fido bo'luptur.

Begona bo'luptur oshnodin,
Begonag'a oshno bo'luptur.

To qildi yuzung havosi joniof,
Yuz sori anga havo bo'luptur.

Baqo topar ulki, bo'ldi fonyi,
Rahravg'a baqo fano bo'luptur.

To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo'luptur.





Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
O'yakim paydo bo'lur yulduz,
nihon bo'lg'ach quyosh.

Qut bir bodom-u yerim go'shayi mehrob edi,
G'orati din etti nogah bir balolig' ko'z-u qosh.

Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,
Subhning bot-bot dami andoqlik aylar mehr fosh.

"Bo'saye qilmas muruvvat, asr-u qattiqdur labing"
Desam, og'zi ichra aytur: "La'l ham bor nav'i tosh".

Novaking ko'nglumga kirkach jon talashmoq bu ekin,
Kim qilur paykonini ko'nglum bila jonim talosh.

Umri jovid istasang fard o'lki, bo'ston Xizridur –
Sarvkim, da'b ayladi ozodalig' birla maosh.

Qoshi ollinda Navoiy bersa jon ayb etmangiz,
Gar budur mehrob, bir-bir qo'yg'usidur barcha bosh.





Yordin ayru ko'ngul-mulkedurur sultoni yo'q,
Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qaro tufrog'dekdurkim, gul-u rayhoni yo'q.

Bir qaro tufrog'kim, yo'qtur gul-u rayhon anga,
Ul qorong'u kechadekdurkim, mahi toboni yo'q.

Ul qarong'u kechakim yo'qtur mahi tobon anga,
Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni yo'q.

Zulmatekim, chashmayi hayvoni aning bo'lmag'ay
Do'zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni yo'q.

Do'zaxekim ravzayi rizvondin o'lg'ay noumid,
Bir xumoredurki, anda mastlig' imkonni yo'q.

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor
Hajrdin dardi-yu lekin vasldin darmoni yo'q.



Ko'nglung istar yorlar birla hamisha shod bo'1,
Mendin-u kimdinki, ko'nglung istamas, ozod bo'1.

Garchi sabrim uyi yanglig‘ aylading vayron meni,
Doimo, yo Rabki, husnung mulkidek obod bo'1.

Men chekib anduh o'lay, el joni bo'lsun ul Masih,
Sovrul, ey charxi nigun, v-ey dahri dun, barbod bo'1.

Bevafolar zulm-u bedodig‘ a ermassen harif,
Ey sinuq ko'nglum, agar xud shisha, gar po'lod bo'1.

Tuttum o'lmaqdin tirilmak hajrida tengdur manga,
Emdi gar bergil ziloli Xizr, agar jallod bo'1.

Chekma boshkim, emin ermassen xazon yag‘mosidin,
Bu chaman ichra agar savsan, agar shamshod bo'1.

Ey Navoiy, olam ahlig‘ a chu yo‘q ermissish vafo,
Kel-u mundin nari, bekaslik bila mu'tod bo'1.





Mahvashekim mehridin bo‘ldum jahon ovorasi,
Rahm etib bir chora qilmas o‘lsa ham bechorasi.

Zaxmlar qilding yana g‘am nishidin, ey bevafo,
Butmish erdi vasl no‘shi birla bag‘rim yorasi.

Bevafolar ko‘ngli tong yo‘q lablaringga bo‘lsa sayd,
Qaydakim la’l o‘lsa, atrofida bo‘lur xorasi.

Yuziga boqqach, ajab yo‘q ko‘zlarimga to‘lsa ashk,
El ko‘ziga yosh to‘lar qilsa quyosh nazzorasi.

Dardi hajringdin Navoiy ko‘ngli, ko‘ksi, bag‘ridur,
Har biri yuz pora-vu ming yara har bir porasi.

Ko'zungga tani notavonim fido,
Ravonbaxsh la'lingg'a jonim fido.

Labing rangi ollida qonim sabil,
Qading jilvasig'a ravonim fido.

Bel-u og'zing oldi tan-u jonnikim,
Anga oshkor-u nihonim fido.

Bag'ir la'li, ko'z durri ollingda sarf
Demaykim, sanga bahr-u konim fido.

Junun birla aqlim g'amming sadqasi,
Ki ollingda yaxshi-yomonim fido.

Fano dashtida qani ovoralik,
Kim ul sayrg'a xonumonim fido.

Navoiydin olding ko'ngul, jonne ham,
Sanga aylay, ey dilsitonim, fido.



Do'star, ahli zamondin mehr umidi tutmangiz,
Mehri gardun bo'lsalar ko'z nuridin yorutmangiz.

Gar shah o'lsin, gar gadokim, solmangiz yuziga ko'z,
Yodini balkim ko'ngulga har taraf yovutmangiz.

Zulm ila yuz chok qilg'an tang'a gar marham yoqib,
Butqarurbiz, desalar, ul zaxmlarni butmangiz.

El jafosining maloli qilsa har dam qasdi jon,
Ko'nglungizni g'ayri bekaslik bila ovutmangiz.

O'ksudi el mayli mendin, bir yo'li, ey dard-u g'am,
Gah-gahe siz bore boshimdin qadam o'ksutmangiz.

Hajr o'tin jonimg'a yoqtim, ko'rsangiz usruk meni,
Endi, ey pand ahli, do'zax o'tidin qo'rutmangiz.

Chun Navoiy dasht tutti emdi zinhor, ey vuush,
Kim bashar jinsini ul majnun sari yovutmangiz.

Onsiz o'lmoq, erur o'lmoq jonsiz,
Bo'layin jonsiz-u bo'lmay onsiz.

Qoshi bu chok ko'nguldin ayru,
Filmasal yoye erur qurbonsiz.

Ohkim, dard yuzidin chiqmas,
O'q emas bo'lsa erur paykonsiz.

Ishq daryosig'a, eykim, kirding,
Bilki, bu bahr erur poyonsiz.

Yorsiz ko'nglum erur oshufta,
Mulk oshub topar sultonsiz.

Su-yu o't ichra siz, ey ko'z-u ko'ngul,
To ul oy orazig'a hayronsiz.

Gar Navoiy chekar un hajr tuni,
Yo'q ajab tun emas it afg'onsiz.



Ko'nglum ichra dard-u g'am
avvalg'ilarg'a o'xshamas,
Kim ul oyning hajri ham
avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Ne sitamkim, qilsa rahmi maxfiy erdi zimnida,
Emdi qilsa har sitam avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Demangiz Shirin-u Layli
oncha bor husn ichrakim,
Xo'blikda ul sanam avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Javridin erdi alamlar, emdi tutmish o'zga yor,
O'lmishamkim, bu alam avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Ishq aro Farhod ila Majnung'a o'xshatmang meni,
Kim bu rasvoyi dijam avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Ko'yining ehromidin ko'nglumni
man etmang yana,
Kim anga azmi haram avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Ey Navoiy, qilma Jamshid-u Faridun vasfikim,
Shoh G'oziyg'a karam avvalg'ilarg'a o'xshamas.





Oshiq o'lдум, bilmadim,
yor o'zgalarga yor emish,
Olloh-Olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish.

Qaddig'a el mayli bo'lg'ondin ko'ngul ozurdadur,
Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.

Elga novak urdi, men o'lдум, erur bu turfakim,
Jonom etkan resh el bag'rig'a kirgan xor emish.

Rishtakim muhlik yaram og'zig'a tiktikim,
angladim,
Kim kafan jinsi qirog'idin suvurg'on tor emish.

Ko'yi devoridin og'riq tang'a tushkon soyadek,
Seli g'amdin emdi soya o'rning'a devor emish.

Jong'a taxvif ayladim tig'i halokidin aning,
Bilmadim, bu ishtin ul o'lguncha
minnatdor emish.

Ey Navoiy, xo'blarni ko'rma osonlig' bila,
Kim birovkim soldi ko'z,
uzmak ko'ngul dushvor emish.



O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur.

Desa bo'lg'aykim, yana ham o'n sakiz yil husni bor,
O'n sakiz yoshinda muncha fitnakim boshindadur.

O'n sakiz yil dema, yuz sakson yil o'lsa, uldurur
Husn shohi, ul balolarkim ko'z-u qoshindadur.

Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,
Barchasi Ezid taolo sun'i naqqoshindadur.

Tan anga siymu ichinda tosh muzmar ko'nglidin,
Aqlg'a yuz hayrat ul oyning ich-u toshindadur.

May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,
Bulajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.

To Navoiy to'kti ul oy furqatidin bahri ashk,
Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindadur.



Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra?
Chu ulkim, bahraye andin tilarmen, bahramand etmas.

Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a
Ayon ul zahrchashm aylab, nihon bu no'shxand etmas.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husn-u malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o'z chobuki qotilvashi majnunshiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.

Ko'ngul uz charxi zolidin, firibin yemakim, oxir
Ajal sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.





Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim?!
Ko'rguzub yuz mehr, ming dard-u balosin ko'rmadim?!

Kimga boshimni fido qildimki, boshim qasdig'a
Har tarafdin yuz tuman tig'i jafosin ko'rmadim?!

Kimga ko'nglum ayladi mehr-u muhabbat foshkim,
Har vafoga yuz jafo oning jazosin ko'rmadim?!

Kimga jonimni asir ettimki, jonim qatlig'a,
G'ayr sori xulq-u lutfi jonfizosin ko'rmadim?!

Kimga soldim ko'z qaro-vu oqini ishq ichrakim,
Qon aro pinhon ko'zum oq-u qarosin ko'rmadim?!

Sen vafo husn ahlidin qilma tavaqqu', ey rafiq,
Kim men ushbu xaylning husni vafosin ko'rmadim.

Ey Navoiy, tavba andin qilmadim shayx ollida,
Kim bu ishda dayr pirining rizosin ko'rmadim.





Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtim-u chektim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zimg'a-yu ul sho'xi badxo' kelmadi.

Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro'zgorimdek ham o'lg'anda qarong'u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim yig'ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi.

Ko'zlariningdin necha su kelgay?! – deb o'lturmang meni,
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha su kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo'qsakim qo'ydi qadam,
Yo'lg'akim, avval qadam, ma'shuqi o'tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglung uyin,
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.





Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

Garchi xalq ozodasimen, yor agar bandam desa,
Andin ortuq anglakim, bir banda ozod aylagay.

Yordin har kimki bir so‘z der, tuganmasdin burun,
Istaramkim, avvalidin yona bunyod aylagay.

Yor hijronidin o‘lgumdur, bu nav’ ermisht sazo
Ul kishigakim, biravga o‘zni mu’tod aylagay.

Necha sabr avroqi yozg‘ay ko‘nglum-u bir oh ila
Sarsari ishqing yetib, borini barbod aylagay.

Shayxdin zuhdi riyoyi kasb o‘lur, yo Rab, qani
Dayr pirikim, fano rasmini irshod aylagay?

Odam avlodida kamdur odamiliq shevasi,
Odam ermas, ulki mayli odamizod aylagay!

Ne balodurkim, falak har kimga cheksa tig‘i kin,
Yongilib avval mening jonimg‘a bedod aylagay.

Besha ichra devlar maqtuli o‘lsun, ey pari,
Gar Navoiy yona azmi Astrobod aylagay.





Jong'a chun dermen: ne erdi o'lmakim kayfiyati?
Derki: "Bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati".

Jismdin so'rsamki, bu za'fingga ne erdi sabab?
Der: "Anga bo'ldi sabab o'tluq bag'irning hirqati".

Chun bag'irdin so'rdum, aytur: "Andin o't tushti manga,
Kim ko'ngulga shu'la soldi ishq barqi ofati".

Ko'ngluma qilsam g'azab, ayturki: "Ko'zdindur gunah,
Ko'rmayin ul tushmadi bizga bu ishning to'hmati".

Ko'zga chun dermenki, ey tardomani yuzi qaro,
Sendin o'l mish telba ko'nglumning balo-yu vahshati".

Yig'lab aytur ko'zki: "Yo'q erdi manga ham ixtiyor,
Kim ko'rundi nogahon ul sho'xi mahvash tal'ati".

Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy,
Kim sanga ishq o'ti-o'q ermish azalning qismati.



Bizing shaydo ko'ngul bechora bo'l mish,
Malolat dashtida ovora bo'l mish.

Anga baskim yog'ar tosh ustida tosh,
Tanida yora uzra yora bo'l mish.

Urarda dam-badam xorog'a boshin,
So'ngaklar anda pora-pora bo'l mish.

Balo tog'i aro yotqanda bemor,
Xirad sinjobi xor-u xora bo'l mish.

Qaro qildi nachukkim ro'zgorim,
Aning ham ro'zgori qora bo'l mish.

Qadah xurshidi qanikim, g'amidin
Sirishkim kavkabi sayyora bo'l mish.

Navoiy, choradin ko'p dema so'z kim,
G'amingg'a chorasizlig' chora bo'l mish.



Dayr aro mug‘bachadin sog‘ari mastona kerak,
Nechakim tutsa ani to‘ldurubon, yona kerak.

Menki bir sog‘ar ichib, charxni barham ursam,
Bu ko‘han dayri fanocha manga mayxona kerak.

Yetti daryo suyi may bo‘lsa bu mayxona aro,
Loaqal xud birisi sig‘ucha paymona kerak.

Dayr piri bu xarobotning ayvoninda
Aqli Kulga sabaq o‘rgatguchu farzona kerak.

Davrida mug‘bachalar har biri jon olmoqda,
Yuz Masihog‘a sitam qilg‘ucha jonona kerak.

Bo‘yla bazm ichra alar har birikim tutsa qadah,
Naqdi din bergali bir men kibi devona kerak.

Kim Navoiy kibi bu dayr aro tutsa vatan,
Hush-u zuhd-u xirad-u din ila begona kerak.





Vah, necha davron jafosi aylagay mahzun meni,
Soqiyo, bir davr ayog'i birla qil majnun meni.

Bexud o'lmishmen mayi la'lingni ko'rgach, ohkim,
Qildi mast og'zimg'a yetmay ul labi maygun meni.

Lahza-lahza o'ylakim, javrungki husn aylar fuzun,
Shavq aro ham ishqing aylar dam-badam afzun meni.

Elta olur bir quyun jismim xasin ul ko'ydin,
Ranja bo'lma qilg'ali ovora, ey gardun, meni.

Mujdayi vasl-u hayot o'lg'ay dedim noming, valek
Xatti behush aylabon qatl ayladi mazmun meni.

Menda mug' dayri havosi g'olib-u sizda xumor,
Mayg'a, ey ushshoqi muflis, aylangiz marhun meni.

Ey Navoiy, vasl aro-o'q kosh sursa tig'i kin,
Furqatida oqibat o'Iturgusidur chun meni.





Ey, nechukkim, durni maxfiy asraban Ummon aro,
Gavhari ishqini pinhon asrag'an inson aro?!

Chunki insonni bu gavhar birla aylab bahramand,
Sarfaroz aylab maloyik xayli birla jon aro.

“Allamal inson”g'a chun aylab musharraf yer berib,
Taxti joh-u ishrat uzra ravzai rizvon aro.

O'ylakim, taxt ahlig'a dushmandin o'lmaydur guzir,
Ul xalifa birla dushmanlig' solib shayton aro.

Makkadin xorij qilib, mulkidin aylab benasib,
Qarnlar sargashta-yu ovoralig' davron aro.

G'urbat-u, yolg'uzlug'-u, mahzunlug'-u hasrat bila,
Har zamon yuz ming balo ichra solib hijron aro.

Bo'yla chun rad aylagandin so'ng yana aylab qabul,
Voliy aylab olam otlig' kulbai ahzon aro.

Bu qabul-u rad aro hikmatni kimsa anglamoq
Xayli inson ichra sig'mas hayyizi imkon aro.

Ey Navoiy, sen chu qulsen, qullug'ungni yaxshi bil,
Fikrating raxshig'a javlon berma bu maydon aro.





Ruboiylar



Zavar kishiga ne toj-u, ne afsar bil,
 Ul zavar adab birla hayo darxar bil,
 Har kimki adabsizdur, ishin abtar bil,
 Alqissa eranlarga adab zavar bil.



Kim olim esa, nuktada barhaq de oni,
 Gar bazm tuzar, bihishti mutlaq de oni,
 Har kimsaki, yo'q ilm anga ahmaq de oni,
 Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni.



Kosib kunji kafi zar olg'inchi erur,
 Ikki qo'li mezoni diramsanji erur,
 Kim bo'lsa hunarsiz ishi-o'q ranji erur,
 Bu vajh ilakim, hunari ganji erur.





Ista ato yo'lida fido jon qilmoq,
 Qulluq anoga ham ulcha imkon qilmoq,
 Zuhri abad istasang farovon qilmoq,
 Bil oni ato-anog'a ehson qilmoq.



Farzand ato qullig'in chu odat qilg'ay,
 Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay,
 Har kimki, atog'a ko'p riyoyat qilg'ay,
 O'g'lidin anga bu ish siroyat qilg'ay.



El qochsa birovdin el yamoni bil oni,
 Ahvolida idbor nishoni bil oni,
 Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,
 Olam elining yamon yamoni bil oni.



Kim do'st durur nozu naim angla ani,
 Dushman esa niyroni jahim angla ani,
 Tan xok esa xasmdin, salim angla ani,
 Zarbeki habib urar, alim angla ani.





So‘zidin kishikim g‘am-u balo hosildur,
Har nuktada tili desa balo doxildur,
Besirfa degan kishiga tili qotildur,
Alqissaki, kimsaning balosi tildur.



Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi,
Baxtim kibi har ishta zabunluq qildi,
Gah kom sari rahnamunluq qildi,
Alqissa: base buqalamunluq qildi.



Ul qavmdin a’juba xaloyiq bo‘lmas
Kim, me’dalari harom yerdin to‘lmas.
O‘lguncha balo chekib erurlar mavjud,
Chin bo‘ldi bu da’voki, yasog‘liq o‘lmas.



Afsuski, umri navjavonlig‘ ketti,
Tang‘a qariliqda notavonlig‘ yetti,
Gar yuz yil ulki komronlig‘ etti,
Chun topmadi margdin amonlig‘, netti?





Chun ketti yigitlik-u uzoldi qariliq,
Dam sovudi, ya’ni qolmadi qon ham isiq.
Og‘zig‘a hayot sharbati bo‘ldi achig‘,
O‘lmog‘ xushroqki, umr bu nav’ qattiq.



Iymong‘a erur nishon hayo birla adab,
Hurmat bila ta’zim saodatqa sabab.
Hayo-vu muaddab angakim, bo‘lsa laqab,
Maqsudig‘a kech yetsa ajab, angla ajab.



Har kimki, qanoat tarafi nisbati bor,
Borcha el aro tavoze-u izzati bor,
Ulkim tama-u hirs bila ulfati bor,
Yaxshi-yamon ichra zillat-u nakbati bor.



Gar qilsa kishi qilib gunohe, tavba,
Ul jurmg‘a bo‘lsa uzrxohi tavba.
Qilmoq necha goh jurm-u gohi tavba,
Bu jurm ila tavbadin, ilohi, tavba!





Johilki, hasad bo'lg'ay aning jahlig'a zam,
Nur el ko'zidin anglasa o'z ko'zida kam.
Ko'zlarni olishmoqqa chekib tiyg'i sitam,
El ko'zini ham o'yg'a-yu, o'z ko'zini ham.



Umrung quyoshig'a bermasun charx zavol,
Joning qamarini qilmasun davr hilol.
Tun-kun bo'lg'il mahravish-u mehrxisol,
Dahr ahlig'a nurbaxsh-u farxundajamol.



Kim istasa sultanat, saxodur anga shart,
Har va'daki aylasa, vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart.



Gar oshiq esang, zeb-u takallufni unut,
Yaxshi-yu yomon ishda taxallufni unut.
O'tgan gar erur yomon, taassufni unut,
Kelgan gar erur yaxshi, tasarrufni unut.





Yo rabki, inoyatingni yor ayla manga,
Yo'qluqqa hidoyatingni bor ayla manga,
Har kahfi kifoyatingni dor ayla manga,
Har durri inoyating nisor ayla manga.



Gul bordi esa, chaman muattar bo'lsun,
Sham o'chti esa, qamar munavvar bo'lsun.
Shahzodag'a gar ravza muyassar bo'ldi,
Sultong'a jahon mulki muyassar bo'lsun.



Jonim aro o't la'li suxandoning uchun,
Yuzum uza kavkab mahi toboning uchun,
Ko'ksumda alif sarvi xiromoning uchun,
So'zlab, yuz ochib kel bu taraf joning uchun.



Zohid, sanga hur, manga jonona kerak,
Jannat sanga bo'lsun, manga mayxona kerak.
Mayxona aro soqiy-u paymona kerak,
Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak.





Yillar tutubon shayx maqolotig'a go'sh,
Ne ko'ngluma zavq yetti, ne jonima jo'sh.
Jonimg'a navo soldi-yu ko'nglumga xurush,
Bir jur'a bila mug'bachayi bodafurush.



Gul zikrin eshiturmen-u yo'q guldin asar,
Bu bog' eshidigin istaram oncha guzar,
Kim topmasa gul jamolidin bahra nazar,
Bore isidin yetsa dimog'img'a xabar.



Onalarning oyog'i ostidadur
Ravzayi jannat-u jinon bog'i.
Ravza bog'i visolin istar esang,
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.



Mo'min ermastur, ulki iymondin
Ro'zgorida yuz safo ko'rgay,
Toki qardoshig'a ravo ko'rmas –
Har nekim o'ziga ravo ko'rgay.



Kim musulmonlig' aylasa da'vo
 Chin emas gar fido qilur jonlar.
 Ul musulmondururki, solimdur,
 Tili-yu ilgidin musulmonlar.

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?
 Eshitib, ayla shubha raf' andin.
 Yaxshiroq bil ani ulus arokim,
 Yetsa ko'prak ulusqa naf' andin.

Emas ul pahlavonki o'z qadrin
 Bosh uza eltibon nigun qilg'ay.
 Pahlavon oni bilki yetsa g'azab
 Nafsi ammorani zabun qilg'ay.

Tengridin rahm agar tama' qilsang,
 Avval o'lmoq keraksen elga rahim.
 Har kishikim ulusqa rahm etmas,
 Anga rahm aylamas rahimi karim.

Kimki har kimga va'daye qildi,
 Shart erur va'dag'a vafo qilmoq.
 Va'dakim qilding uyladurkim dayn,
 Farzdur qarzni ado qilmoq.

Har kishikim birovni mahram etib,
 Mashvaratda amini roz etti,
 Gar yashurdi bilib saloh so'zin,
 O'zini qalb-u hiylasoz etti.

Solma ko'z kimsa bo'lsa nomahram,
 Garchi nafsing topar nazorada sud,
 Ki nazarkim harom – shaytonning
 Novakidur va lek zahrolud.

Dedi ko'p so'zlagan xato ko'p etar,
 Ulki derlar ani valiyulloh.
 Har balokim yetar – erur so'zdin,
 Buyla hukm ayladi nabiyulloh.



Qit'alar



Haq zotig'a biravki, xirad birla fikr etar,
Otin el ichra oqil-u farzona aylabon.

Miqdorini tengiz suyining istar anglamoq,
Lekin hubob jomini paymona aylabon.



Tavakkulni ulkim qo'yub xotirig'a,
Tushar shoh ollinda qulluq havosi.

Nasibi aning bir ayoq osh erur bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi.

Biravkim, bo'lur bir ayoq osh uchun qul,
Yuziga keraktur qazonning qarosi.





Qanoat tariqig'a kir, ey ko'ngul,
Ki xatm o'lg'ay oyini izzat sanga.

Desang shoh o'lay yer-u ko'k basdurur,
Bu bir taxt-u ul chatri rif'at sanga.

Fano shu'lasida yoshur jismni,
Kerak bo'lsa zarbaft xil'at sanga.

Etar lola butgan qoya qullasi,
Murod o'lsa gulgun hashmat sanga.

Erur bas arig' nukta-vu qon yoshing,
Dur-u la'l din zeb-u ziynat sanga.

Desang xilvatim anjuman bo'imasun,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.

Vatan ichra sokin bo'lub soyir o'l,
Safardin agar bo'lsa mehnat sanga.

Nazarni qadamdin yiroq solmag'il,
Bu yo'l azmi gar bo'lsa rag'bat sanga.

Damingdin yiroq tutmag'il hushni,
Ki yuzlanmagay har dam ofat sanga.

Bu to'rt ish bila rub'i maskun aro,
Chalinmoq ne tong, ko'si davlat sanga.



Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband,
Navoiy, agar yetsa navbat sanga.

Kimki maxluq xizmatig'a kamar
Chust etar, yaxshiroq ushalsa beli.

Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur,
Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.

Chun xushomad demakni boshlasa kosh,
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o'limg'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih
Erur hammomin nopok chiqmoq.



Biravkim, jabhasida chin erur, tuta olmas
Murod shohidining soidini komi bila.

Agarchi fannida sohib kamol erur sayyod,
Qachon balig' tuta olg'ay su mavji domi bila?

Quloqda asra garonmoya so'zni-yu fikr et,
Ki dursiz o'lsa, ne bo'lg'usidur sadaf holi.

So'zungni dag'i ko'ngul ichra asrag'ilkim, hayf,—
Kim o'yla durjni guhardin etnasen xoliy.

Bu durj-u ikki sadafni to'la dur etkanga,
Zihi uluvvi guhar, balki gavhari oliy.

Ne rahraveki, toji hidoyat boshidadur,
Yo'q bok anga havodisi aflok toshidin.

Hudhudki, qo'ydilar azaliy toj boshig'a,
Tushkaymu jola yog'qan ila toji boshidin?





Ko'rsang, ey zohid, muqomirvash qalandarpeshaye,
Bo'lma ko'p mashg'ul-u dunyo shug'lidin qil ijtinob.

Dona o'ynab vajhin isor etsang, andin yaxshikim,
Evurub tasbih-u yormoq sudin etkaysen hisob.



Yuziga asli yomonning ko'p ochma gulshani xulq,
Siyahgilemga albatta mehr aylama fosh.

Ki qilmadi gul isi birla toza ruh jual,
Quyosh charog'ig'a parvona bo'ljadi xuffosh.



Chu dushman o'ldi qadimi, ziyonidin hazar et,
Agarchi nutqi ravonbaxshi jong'a rohat erur.

Su birla o't aro ziddiyat o'ldi chun azaliy,
Agar hayot suyidurki, o'tg'a ofat erur.





Viqor gavhari-yu hilm ma'dani bo'lako'r,
Desangki, qilg'ay itoat sanga gado bila shoh.

Bu sheva tog'da zohirdururki, davrondin
Qachonki tafriqa yetti, ulusg'a bo'ldi panoh.



Saxiy uldurki, nav'e bazl qilg'ay,
Agar xud sufra ichra bo'lsa noni.

Kim ul chodir ko'mochidek yetishkay,
Gado uyiga ko'zlardin nihoniy.

Falakdek yo'qki, avval jilva bergay,
Quyoshning qursidek olamg'a oni.



To'nni zarbaft aylabon xiffatdin uchqan har taraf,
Yo'q ajab, gar bor esa dunyo matoi kom anga.

Ul chibinkim, ko'zga oltun yanglig' ishnar xil'ati,
Ko'pragi, bilkim, najosat uzradur orom anga.





Issig' nafas bilan hindug'a tarbiyat qilsang,
Xisoli haryon o'lur jahl tavsanin surmak.

Ko'murni o'tqa solib, la'li otashin etsang,
Natija bo'lg'ay anga qayda tushsa kuydurmak.



Laim farqig'a iqbol tojini qo'ymoq
Yaqinki, bo'lg'usidur mujibi azobi aning.

Nutuqchi boshig'a shunqor tumog'asi tong emas,
Ki bo'lg'usi sababi ranj-u iztirobi aning.



Foniyi mutlaq o'lmayin solik,
Anga yo'qtur umidi maqsadi kull,

Qaro tufroqg'a singmagan qatra,
Andin imkon yo'q ochilmoq gul.





Qarilar xotiri nozukdur, ey tifl,
Shikastidin qilib vahm, o'lma gustox:

Unuttungmuki, atfol o'ynag'anda,
Sinar oz mayl ko'rgandin quruq shox.



Umrin ablah kechurub g'aflat ila,
Nukta o'rning'aki tortar xarros.

Bir eshakdurki, tag'oful yuzidin,
Qilg'ay izhor payopay arros.





Debon bergen kishi erdur valekin
Demay berganga erlik bil musallam.

Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,
Debon bermasni xotundin dag'i kam.



Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.

Kim, kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odamiy.





Yuqori o‘ltururni kim tilasa,
Kishilikdin ani yiroq bilgil.

O‘lturur safda yuqoriliqdin,
O‘lturur safda yaxshiroq bilgil.



Riyoziy bo‘lsa qozi, bas, ajabdur,
Kerakkim fiqh ilmin bilsa qozi.

Anga chun fiqh din aslo xabar yo‘q,
Ne yanglig‘ bas bo‘lur qozi Riyoziy?





Har imoratkim tugandi garchi sho‘xedur jamil,
Bo‘lsa koshikorlig‘ aylar jamolin birga o‘n.

Bu yaqindurkim jamol ahli yolongliqdin base,
Yaxshiroqdur bo‘lsa koshi naqshliq egnida to‘n.



Ayni rifq ayla gumon faqrni, aning birdur,
Harf ham ikkisig‘a yaxshi gar etsang tahqiq.

Jam‘i ham birdurur inak fuqaro-vu rufaqa,
Siyg‘ai mufradi ham ayni faqir o‘ldi rafiq.

Bor ishorat angakim rifq-u mavosodur ishi
Har muxolif el ila faqrg‘a topqon tavfiq.

Poya mundin biyik o‘lmaski risolat xatmi,
Faqrning nisbatida faxrg‘a qildi tasdiq.



Uy ichra ham kitoba ham izora,
Zaruratdur tugangan chog‘da qilmog‘.

Yo‘q ersa ul uy o‘xshar bir kishiga,
Ki anda bo‘lmag‘ay ishton-u belbog‘.

Jahon ganjig‘a shoh erur ajdaho
Ki, o‘tlar sochar qahri hangomida.

Aning komi birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho komida.



Yuz tuman nopol erdin yaxshiroq,
Pok xotunlar ayog'ining izi.

Lut o'g'lin ko'rki soldi tiyralik,
Ding'a nafs ilgida tab'i ojizi.

Dahr aro yoqtı siyodat mash'alın,
Pokravliqtin Rasululloh qızı.



Ko'p oltun, kumush sari qo'l sunmog'il,
Ki tutsang kafingni qaro zang etar.

Ko'ngulda dog'i maylini asrama,
Ki ko'nglungni dog'i hamul rang etar.



Ahli ma'ni guruhida zinhor,
Hech or aylama gadolig'din.

Kim bularg'a gadolig' ortug'dur,
Ahli suvratqa podsholig'din.

Tengri xonin ochuq aqida qilib,
Xalqdin ro'ziy istagan gumroh.

O'ladurkim tengiz qirog'inda,
Ro'za ochmoqqa kimsa qozg'oy choh.



Ey Navoiy, olam ahlida tama'siz yo'q kishi,
Har kishida bu sifat yo'qtur, anga bo'lg'ay sharaf.

Sen agar tarki tama' qilsang, ulug' ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir taraf.



Ano o'rnnin ato tutmas o'g'ulg'a,
Ki mumkindur o'g'ul bo'lmoq atosiz.

Masiho birla Mar'yamdin qiyos et,
Ki imkon yo'qturur bo'lmoq anosiz.





Ulki, iflosdin ayog‘inda
Kafsh yo‘l azmi chog‘i yo‘qtur aning.

Shukr qildik boqib birav sari,
Ki yururga ayog‘i yo‘qtur aning.

Yuz tuman ming pora ko‘nglum diqqati har necha bor,
Lekin ermastur ani jam’ aylamak mumkin bu kun.

Tog‘ni qum aylamaklik sa’y ila bo‘lg‘ay, valek
Shishai soat qumining rishtasi bo‘lmas tugun.



Erur ahli hunar qoshinda hunar
Ayb yopmoq, dog'i hunar topmoq.


Hunarin elning oshkor etmak,
Yo'q esa bori aybini yopmoq.



Har kishikim topsa davron ichra joh-u e'tibor,
Kim aning zotida bedod-u sitam bo'lg'ay qilig'.

Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa,
Kim yomonlig' qilmasa, qilg'ancha bordur yaxshilig'.







Qalbg'a malham o'gitlar



So'z guharig'a erur oncha sharaf,
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.



Har ne so'z aytilsa erur chun o'zi,
Jon o'lub ul, ruh aning qolib.



Gar xud erur xanjari po'lod til,
Suftidog'i injulari so'zni bil.



Til bu chamanning varaqi lolasi,
So'z duraridin bo'lubon jolas.



Surat ila bo'lsa mahi osmon,
Surati devor hamon, ul hamon.





Daftari nazmida chu sherozadur,
Gul varaqi gulshan aro tozadur.



Tarki adabdin biri kulgu durur,
Kulgu adab tarkiga belgu durur.



Qahqahadin kabk navo kelturub,
Boshig'a ul kulgu balo kelturub.



Ulki, haq borinda maqsud istagay har zotdin,
Mehr borinda yorug'luq ko'z tutar zarrotdin.



Tama' etma, ko'p o'lsa el moli,
Ko'rmayin haq xazinasin xoli.



Yetar chu rizqing, agar xoradur, vagar yoqut,
O'zungga yuklama anduh tog'in, istab qut.





Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo'q.



Takalluf erur tang'a farsudaliq,
Aning tarkidur jong'a osudaliq.



Muzavvir makri bo'ldi mu'jibi qayd,
Nechukkim tulki la'bi boisi sayd.



Qotiq el jismidin anburlar olmay naqd emas vosil,
Ki tog'ni pora-pora qilmayin, la'l o'lindi hosil.



Ko'k bahridin yana tama' kom tutmayin,
Kim qatra suv tomizmas, el og'zin qurutmayin.



E1 ichra, ey hasud, seni qildi haq zalil,
Kim nohaq elga zidsen-u haq molig'a baxil.





Xалиқ о'лг'он саҳиёдін елга бөлди иккі басхойиш,
Хам еһсонидін оройиш, хам ахлоқидін осойиш.



Yолғ'он демакда тәжіриба аввалиң іншінде,
Yолғ'он нағас чу урди, қарорды һамул нағас.



Ко'нгұлға фурт о'лмайын,roz өчілмес,
Садағар бутун бо'лса, гавхар сочилмес.



Г'офіл о'лма, наزادін ітса адуды,
Шам' о'чүрганды ял көрүнүрмү?



Yuqar yamonlig' angakim, kirar yamon el aro,
Ко'мур аро илік urg'an qilur ilgini qaro.



Forig' el davronda бори қондадур,
Ким бу даврондадурур дармона дадур.





Dunyo-vu uqbo ikkisi jam' o'lmas, ey rafiq,
Kimki ikki kema uchini tutar, bo'lur g'ariq.



Kimki falak sori otar toshni,
Tosh ila ozurda qilar boshni.



Istasangkim, ko'rmagaysen bevafolig', ey rafiq,
Qilma olam ahli birla oshnolig', ey rafiq.



Jahon arusi uchun, eyki, asru tolpinding,
Qachon oning boshidin kechting, ul zamon tinding.



Ulki, sanga eldin erur aybgo',
Elga dog'i sendin erur aybjo'.



Aysh, Navoiy, necha dilkashdurur,
Lek adab birla hayo xushdurur.





Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydalig‘ so‘zni eshiturdin qaytma.



Bu gulshan ichra yo‘qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshiliq bila ot.



Kular yuz ila ato-saxo ustig‘a saxo.



Gulda vafo yo‘qin qayu bir qushki angladi,
Hargiz vafo guli tilamas dahr bog‘idin.



Naf‘ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf‘, o‘zungga ko‘prakdurur.



Ilmni kim vositai joh etar,
O‘zini-yu xalqni gumroh etar.





O'z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o'zungdin istagil.



Xaloyiqqa ko'rma, qilib benavo,
O'zingga ravo ko'rmaganni ravo.



Odami ersang, demagil odami,
Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.



Manga ne yor-u, ne oshiq havasdur,
Agar men odam o'lSAM, ushbu basdur.



Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.



Kimki kishi o'lMAKIDAN shod erur,
Go'rkan-u g'osil-u jallod erur.





Bordur inson zotida oncha sharaf, –
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.



Xush durur bog‘-u koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli.



Bu gulshan ichra yo‘qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.



So‘zda, Navoiy, ne desang chin degil,
Rost navo nag‘maga tahsin degil.



Kimniki inson desang, inson emas –
Shaklda – bir, fe’lda – yakson emas.



Ko‘p demak birla bo‘lmaq‘il nodon,
Ko‘p yemak birla bo‘lmaq‘il hayvon.





Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishona anga iymon erur.



Yigitlikda yig‘ ilmnинг maxzani,
Qariliq chog‘i xarj qilg‘il ani.



Sen agar tarki tama’ qilsang, ulug‘ ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo‘lg‘ay bir taraf, sen bir taraf.



Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.



Bu korgahda xato kelmadi chubir sari mo‘y,
Xato mening nazarimdandur, xato ko‘rsam.



Agar zolimga yo‘qdur shohdin bok,
Erur ul xushdil-u, mazlum g‘amnok.





Agar kimsadin zohir o'lsa yomon,
Ko'rар har nekim, zohir etdi hamon.



Agar tuzluk o'lsa kishining ishi,
Ne vasf aylay olg'ay ishini kishi.



Ablah ani bilki, olamdin baqo qilg'ay tama',
Ahmaq ulkim, olam ahlidin vafo qilg'ay tama'.



Yaxshi kishilar birla tutar bo'l suhbat,
To bergay amon sharirdin ul suhbat.



Aylama o'z ra'yingga ko'p e'tiqod,
Mu'tamad el ra'yidin ista kushod.



Asra o'zungni birov ozoridin,
Kimsaga ozurdaliq izhoridin.





Agar hikmatga bo'lsa iltifoting –
Ki, bo'lsun Nuh umricha hayoting!



Biyiklik keldi himmatdin nishona,
Ki, himmatsizni past etdi zamona.




Bo'lsa kerak fikr ila shohi zamon,
Yaxshiga yaxshi-yu, yomonga yomon.



Beishq ulusqa kom uyqu,
Ishq ahlig'adur harom uyqu.



Vafosizdur zamon ahli, zamonda ne vafo bo'lg'ay,
Vafo ahli bulardin gar vafo istar, erur nodon.



Gar yo'qtur adab, ne sud oltun unidin,
Elning adabi xushroq erur oltunidin.





Kishikim qilsa olimlarga ta'zim,
Andoqki qilur payg'ambarga ta'zim.



Ilm o'qub qilmagan amal maqbul,
Dona sochib ko'tarmadi mahsul.



Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.



Befoyda so'zni ko'p aytma,
Foydali so'zni ko'p eshiturdin qaytma.



Kimgakim insof yo'q – inson emas,
Munsiz atvorida juz nuqson emas.



Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish.





Til shirinligi-ko'ngilga yoqimlidir; muloyimligi esa – foydali. Chuchuk til achchiqqa aylansa, ko'p-chilikka zarari tegadi; qanddan may tayyorlansa harom bo'ladi. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir; bolalar uchun muloyim tabiatli odam-halvofurush kabi sevimlidir.



U yerdan bu yerga gap tashuvchilar elning gu-nohini o'z bo'yniga oluvchilardir. Chaqimchilik hatto chin gap bo'lsa ham ko'ngilsizdir, yolg'on bo'lsa yanada nafratlidir. So'z yetkazuvchining xoh kattasi, xoh kichigi-do'zax o'tining tutanturig'i bil.



Har kimningki so'zi – yolg'on, yolg'onligi bilin-gach, uyatga qolq'on; yolg'oni chindek gapiruvchi so'z ustamoni – kumushga oltin qoplab sotuvchi zargar. Yolg'on afsonalar bilan uyqu keltiruvchi yolg'onchi – uyquda alahlovchi. Yolg'on gapiruv-chi g'aflatdadir; so'zning bir-biridan farqi ko'pdir, ammo yolg'ondan yomonroq turi yo'qdir.





Kimki, yolg'on so'zni birovga to'nkagay, o'z qora yuzini yog'ga bulaydi. Ozgina yolg'on ham ulug' gunohdir; ozgina zahar ham halok qiluvchidir.



Hilm inson vujudining xushmanzara bog'idir va odamiylik olamining javohirga boy tog'idir. Yumshoq ko'ngillilik hodisalar to'la dengizdag'i kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo'ladi.

Hilm axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamlı matosidir. U – yomon nafsnı daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi.

Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurma-tiga sazovor bo'ladi; hilm tufayli kattalardan kichik-larga iltifot va marhamat yetishadi.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o'zi shuncha obro'siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz va e'tiborsiz bo'ladi.

Bu davr bog'ining xas-xashak singari odamlari, shamoldek betayin, yengiltak kishilari oldida hilm ahli go'yo og'ir tabiatli va yomon fe'lli, deb kam-sitiladilar. Ularning o'zlari esa, quyundek tuproqni





havoga to‘zitadilar va yengiltabiatlari bilan boshlarni go‘yo ko‘kka yetkazadilar. Tog‘ jussasini oyoq osti qilmoq – odatlari; dala-dashtlardagi zarralarni havoga sovurmoq – bularning salobatlari. Bunday odamlar yeldek har eshikdan kirishga or qilmaydi; o‘tdek otashdonni qizdirishdan o‘zga ishni bilmaydi. Yel – garchi lolaning tojini uchiradi, ammo tog‘ qoyalari kamariga qanday ta’sir qila oladi? O‘t-tog‘ etagidagi xas-xashaklarni kuydirishi mumkin, lekin quyosh uchquniga qanday tenglasha oladi?..

Yel – agar ko‘kka yetsa ham, baribir yengil va qadrsiz; tog‘ – agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Yelning orasida o‘tga yoqiladigan xas-xashaklar bor; hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho‘g‘ kabi qizil la’l bor.



Kimki ko‘ngilni qattiq so‘z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko‘ngilda til nayzasining jarohati bitmas; u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas.

Agar bir ko‘ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so‘z va shirin til unga malham va rohatdir. Muloyim so‘z – vahshiyarlarni ulfatga aylantiradi; sehrgar – ohang bilan afsun o‘qib, ilonni inidan chiqaradi.



Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz. Ko‘p, bemaza so‘zlaydigan ezma – kechalari tong otguncha tinxmay huradigan itga o‘xshaydi. Tili yomon odam –



xalq ko'nglini jarohatlaydi, o'z boshiga ham ofat yetkazadi. Nodonning vahshiylarcha baqirmog'i – eshakning bemahal hangramog'i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do'stona so'z aytadi; ko'ngilga tushishi mumkin bo'lgan yuz g'am – uning so'zi bilan daf bo'ladi. So'zda har qanday yaxshilikning imkonibor, shuning uchun ham aytadilarki; "nafasning joni bor..."

O'zi xunuk, gapi bema'ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o'xshaydi. Baxt bag'ishlovchi toza ruh manbayi ham til; yomonliklar keltiruvchi nafs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam – donishmand oqil; so'zga erk bergan odam – bean-disha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi; til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi. Til bilan dil – insondagi eng yaxshi a'zolardir. Bo'stonda – gulsaf-sar, gulg'uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Odam – tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til – shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa – tiling ofatidir.

Yolg'on gapishtan bilan o'z vaqtini o'tkazuvchi odam, bu qilig'i yomon tuyulish o'rniga, kishilar ni aldagani bilan faxrlanadi ham. Yolg'onchi o'z gapiga go'llik bilan qulok soluvchini topsa, ularga yolg'oni chinga o'tkazsa, murodiga yetgan bo'ladi. Yolg'onchi – haq qoshida gunohkor; xalq oldida sharmanda. Bunday nafsning beor yuzi yomonlik-

ka o'girilgan bo'ladi; bunday nahsga botgan odam qutlug' uydan nari bo'lg'ay.

Yolg'onchi odam – unutuvchi; u andisha va ehtiyyotdan chetda turuvchi. Har kimning so'zi chin bo'lmasa, rostgo'ylar ko'ngliga u so'z qabul bo'lmas. Yolg'onchi o'zining yolg'on so'ziga bir-ikki marta ishontiradi, keyin nima qiladi? Yolg'onchiliги ma'lum bo'lgach, u rasvo bo'ladi, uning so'ziga xalq ishonchi yo'qoladi. Ko'ngil xazinasining qulfi – til; u xazinaning kalitini – so'z bil.

Ochiq chehrali odam – ikkiyuzlamachilikdek nuqsondan yiroq bo'ladi... Ochiq yuzidan xalo-yiqqa xursandlik; chuchuk so'zidan el-yurtga xurramlik. Odamiylik bilan ko'ngillarga sevimli; insoniylik bilan jonlarga yoqimli. Undan do'st-dushman xotirjam. Bunday kishi umridan baraka topgay.

Chin so'z – mo'tabar; yaxshi so'z qisqa – mux-tasar. Ko'p so'zlovchi – zeriktiruvchi; qayta-qayta gapiruvchi – aqldan ozgan. Ayb izlovchi – aybli; kishi aybini gapiruvchi – o'ziga yomonlik sog'i-nuvchi. To'g'rilik bilan qarovchi – pokiza nazarli; kishilarning yaxshi tomonlarini ko'rvuchi – to'g'ri nazarli. Kimning miyasida illat bo'lsa – so'zida mantiq bo'lmaydi. Miyasi sog'lom bo'lsa, gap-so'zi

yoqimli va xatosiz bo'ladi. So'zi hisobsiz – o'zi hisobsiz. So'zida parishonlik – o'zida pushaymonlik. Agar so'z go'zallik ziynati bilan bezalmagan bo'lsa – unga chinlik bezagi yetarlidir!

Yolg'onchining gapi qanchalik chiroyli bo'lsa, shunchalik qabihdir. Chin so'z qanchalik betakalluf bo'lmasin, so'zlovchi uchun taassuf yo'qdir. Gul libosi yirtiq bo'lsa ham ziyonsiz; sadaf xunuk bo'lsa ham inju uchun nuqsonisz. Yolg'on so'z she'rdan boshqa yerda nomaqbul va yolg'oni aytuvchi aqlsizdir.

Yomon qiliqli odam – badfe'l; achchig'i tez – bir baloga giriftor, bir ofatga mutbalo badbashadar. Bular qayon borsa – balodan qutilmas; har yerga qochsa ham ofatdan xalos bo'lmas. Yomon qiliq g'olib dushmandir va qahrli yovdir, yomon qiliqli kishi esa doim unga mag'lub va vujudi undan majruh.

Dushman aldoviga uchma; maddoh xushomadini chin dema. Dushmanning g'arazi o'z yomon niyatiga yetmoqdir; maqtovchining maqsadi – xorlik bilan sendan in'om olmoqdir. Agar ikkalasiga iltifot qilmasang va qabul qilishni lozim bilmasang, biri o'z maqsadining ijrosidan to'xtaydi va tadbiri mujmal bo'ladi va ikkinchisining maqtovi hajvg'a aylanadi.




Noxush xabarni chin bo'lsa ham do'stingga yetkazma; birovdan ayb ko'rsang yuziga solma. Qo'yaver, o'sha chin xabarni dushman yetkazsin va sen sabr qil, u ayb mojarosini dushmani qilsin.



Aqli odam yolg'on gapirmas; ammo barcha rost gapni aytaverish ham to'g'ri emas. Birovning ko'zi g'ilay – nogirondir; ammo, bunga u aybdor emasdир... Birovni nohaq xijolatga solmoq – o'z nodonligini izhor qilmoq va bir ko'ngilni og'ritmoqdir. Bu kabi kishini xafa qiladigan chin so'zdan ko'ra zarurat yuzasidan – o'rni bilan gapirilgan yolg'on yaxshiroqdir.



عالم آدم کا حکم و سپاہ
 قصری یونی کسبد کر دکن پ
 تی اپنے خادمین نان کلیپ
 بیسی شہ اول حنسہ و خالیہ
 مہلیتی پر لامبائی است انکا
 ترک و مونغول قلی زیع خان رئیب
 کھانی کیک پستن ندازیک
 کن کیسان نہ نامات کنوا
 الونی خانلار بکیب و سخن
 ملار و ملار بیشی



Alisher Navoiy hikoyatlari

*B*ir uquvsiz bog‘bon bor edi. U bog‘bonlik san’atidan bexabar edi. U na daraxtga payvand qilib, undan huzur-halovat beruvchi meva olishni, na daraxtlarni parvarish qilib o’stirishni va na o‘z vaqtida guli hosilga kira oladigan don sepishni billardi. Bog‘ aro xas-xashak terish bilan xursand edi. Aslida uni bog‘bon emas, xashakchi deyish kerak edi. U shu tarzda zahmat chekib, o‘z umrini o’tkazar edi. Yaqin o‘rtoqlari unga bu xil samarasiz ishni tashlab, o‘zingni foydali ish bilan ovut, degan tarzda pand-nasihatlar qilar, u esa bularga sira qu-loq solmas edi. Johil bog‘bon bu mashaqqatli ish bilan shug‘ullanishni tark etmadi. Kunlardan bir kun u jo‘yaklar oralab tok kesib yurganida, uni ilon chaqib o‘ldirdi.



Bir mamlakatda bir devona kishi bor edi. Uning maskani kecha-kunduz vayrona edi. Har dam o'sha vayronaning bir yonini qazib, o'z umrini xazinaga erishish umidi bilan o'tkazar edi. Ittifoqo, shuncha mashaqqat chekkandan so'ng baxti chopib, u xazinani topib oldi. U qaziyotgan chuqurda bir eshik ko'rindi. Ichkari kirgach, katta bir saroyga duch keldi. U yerda Faridun, yo'q, balki Qorun xazinasiga teng qirqta xum turar edi. Telba bu boylikni ko'rib hushidan ketib qoldi. Shu orada bu yerga bir ablah kishi yetib keldi. U xazina oldida hushidan ketib yotgan devonani ko'rdi va hech bir ikkilanmay pichoq sanchib, uning qonini to'kdi. Shunday qilib, uning yashashdan maqsadi xazinaga erishmoq edi. Ammo u bor-u yo'q sarmoyasidan – hayotidan ajralib qoldi.





*B*utun vujudi yaramas nafsiga qaram bo‘lgan bir g‘ofil kishi bozor tomon qadam qo‘ydi. U hiyla bilan egniga Xizrnikiga o‘xhash yashil chakmon tashlab olgan bo‘lib, o‘z nafsi ana shu yashil rang bilan xursand qilib yurardi. U bozor ichida keta turib, do‘konlarda turli ne‘matlarning behisob ekanligini ko‘rdi va o‘zini tutib tura olmadidi. Buzuq nafsi egri yo‘lga boshlab, har xil ko‘yga sola boshladi. U mohirlik bilan o‘zini gado sifatida ko‘rsatib, xalq ichida o‘zi haqida har xil so‘zlar ayta ketdi. U goho o‘zining kamolotga erishganini izhor etar, goho karomat egasi ekanligidan afsona so‘zlar, gohida esa shariat va aqlda mumtozligini ko‘rsatar edi. Xullas, shu xil yuz afsun va makr-u hiyla bilan odamlardan yegulik ovqat yoki biron-bir tanga undirib olar edi. Shu tarzda u o‘zini va o‘zgalarni al-dab, shum nafsi buyurgan narsalarni terib yurar edi. Yegan bangi har lahza uni yuz xil buzuq xayollarga yetaklar, ko‘ngliga har xil bo‘lmaq‘ur fikrlarni solar edi. Shu payt nogahon uning oldiga ko‘p manzillarni kezib o‘tgan jahongashta bir sohibdil komil kishi yetib keldi. Hiylagar kishi uni ko‘rgan zahotiyoyq o‘zining yomon holatini o‘zgartirdi. U kishi dedi:

– Pirning oldida qo‘lga kiritgan narsalaringni ko‘rsat. Qani, ko‘raylik-chi, nimalarga erishibsan? Boyagi ochko‘z ziyrak kishiga to‘rvasini ochib ko‘rsatdi. Uning ichi zahar-zaqqumlar bilan to‘la edi. U o‘zi yiqqan narsalarning bari najosat va iflosliklar bilan to‘la ekanligini ko‘rgach, bundan jismiga o‘t





tushib, ko'ngli o'rtandi. Pir unga yerdan bir hovuch tuproq va tosh olib berib, "Ularga qara", – dedi. U qarasa, qo'lidagi tuproq emas, oltin, toshlar esa la'l va qimmatbaho durlarga aylangan edi. Aldoqchi kishi bu holatni ko'rgan zamonoq komil pir uning oldidan g'oyib bo'ldi. U xalq o'rtasida sharmandayi sharmisorlikdan xijolatda qoldi. Ammo endi bu xijolatpazlik va oh-u voyni ko'kka yetkazmoqdan nima foyda?!



*N*alq orasida bir ishyoqmas, tanbal kishi bor edi. Odamlar uning beg'ayratligidan hayron qolar edilar. U odamlardan musht, shapaloq yoki tepki yer, buning evaziga ulardan bir burda non yoki taom olib, kun ko'rardi. Kishilar uni quvib yuborsalar ham, hech qayerga ketmay, o'zining yomon qiliqlarini tark etmasdi. U tortadigan jafolarga ma'lum bir narx to'g'rilib qo'ygan edi. Qaysi bir kishi uni bir temsa yoki ursa, u o'sha kishidan buning haqini talab qilib olar, qo'liga tushgan narsani darhol og'ziga solar edi. Kunlardan bir kuni kimdir uning qo'liga bir parcha non berib, shunday musht tushirdiki, natijada tanbal yer tishlab qoldi. Gar-chand u shapaloqlar yeb, qornini to'yg'azib yurgan bo'lsa-da, bir musht bilan endi qayta o'rnidan turmaydigan bo'ldi.





*B*ir tog'lik odam tog'dan ayiq tutib oldi va uni ko'p aziyat chekib, qo'lga o'rgatdi. Ilgari sayoq yurgan ayiq egasiga rom bo'lgunga qadar kunda ikki marta o'lguncha tayoq yer edi. Ochlik azobi va yegan behisob tayog'i ichi va tashini ezib tashlagan edi. Shu sababli egasi unga bir yog'och ko'rsatsa, ayiq yuvoshlik bilan unga bo'yin egardi. Shu tarzda ayiq ko'cha-ko'ylarda o'yinchilik qilib yurar, ega-sining uyiga o'tin tashib keltirar edi. Xo'jası unga haddan ko'p yuk ortar, ayiq yuk tashiyverganidan egnida hatto tuk qolmagan edi. Xullas, u bu dunyo-da qancha jabr-u jafo bo'lsa, hammasini tatib ko'r-gan edi. Ammo jaholati tufayli nafsida takabburlik ortib ketdi. Goh makr-u hiyla va xusumat toshi bi-lan qoplon boshini yanchib tashlayman, deb xayol qilar, goh dahshatli sher yo'liqsa ham, taom uchun uning qornini dadil yorib yuboraman, deb o'ylar-di. U shu sifat har xil xomxayollarga berilib yurdi. Oxir-oqibatda uning o'zi bir kun itlarga yem bo'ldi.





*B*asra shahrida bir ochko'z kishi bor edi. U nodonlik bilan oltin-kumush yig'ishga mukkasidean ketgan edi. Hotam Toy saxovat va karam ko'rsatishda qancha nom qozongan bo'lsa, u dinor va dirham yig'ishda undan mashhurroq edi. Ushbu xasis va pastkash kishi ko'p mashaqqat chekib bitta-bittalab kumush yig'ar edi. U katta bir xazina to'plagach, ularni yer tagiga ko'mdi. Bu tuban tabiat yana shunga teng keladigan boylikni to'niga gir aylantirib tikib olgan edi. Yashirgan behisob oltinlari o'sha shum hirsli kishining ko'ziga hatto kunduz kunlari ham osmonda yaraqlagan yulduzlar kabi ko'rinar edi. U o'zicha, tanimga quvvatgina emas, balki jonimga sihat ham ana shu oltinlarim tufayli, deb o'ylardi. Ittifoqo, bir kuni u savdo-sotiq qilish uchun daryo sohiliga keldi. U yerda savdo qilgan molidan tushgan harom pullarga taom olib yedi. Shundan so'ng, qo'lini yuvmoqchi bo'lib daryo labiga engashdi. Ammo to'niga tikkan oltinlari og'irlik qilib, uni suvga tortib ketdi. Xasis kishi ana shu yomon fe'li tufayli daryoga cho'ka boshladi. U suvdan chiqmoqchi bo'lib, iztirob bilan chunon talpinar, birov kelib qutqarar, degan umidda baqirib-chaqirar edi. Ammo odamlar yordamga yetib kelgunga qadar u daryo tubiga cho'kib bo'ldi. Chunki uning oltindan bo'lgan langari behad og'ir ediki, shu sababli u suv tubida sadaf ichidagi gavhardek qolib ketdi. Uning joniga ofat yetkazgan narsa, albatta, o'zi yiqqan sim-u zar edi. Shuningdek, uning



yashirib qo'ygan xazinasi ham talon-toroj bo'ldi. Oltin-kumush yig'ish oqibatda ana shunday mud-hish voqeа bilan tugadi. Sen bunday jirkanch ishlar-dan qo'lingni tort! Ularga zinhor mayl ko'rsatma, chunki bu fano dengizi – dunyo doimo dahshatl-i to'lqin urib turadi.

Majnunni dashtda bir kishi uchratib qoldi. U o'zi bilan o'zi so'zlashmoqda edi. U kishi Majnundan so'radi: – Sen kim bilan so'zlashmoq-dasan? – Ey baxtli odam, men Layli bilan so'zlash-moqdamani, – deb javob berdi Majnun. – Axir u sendan juda uzoqda-ku! – Ey g'ofil, u mening jo-nimdan o'rin olgan! Uni yodga olish jonimga oziq bag'ishlasa, yo'l yiroqligi uchun uni unuta olaman-mi? Kimki ishqda kamolot kasb etsa, uning vujudi-da ma'shuq yodi mujassamlashgan bo'ladi. Agar siz ham ishq borasida lof urmoqchi bo'lsangiz, undan sizga dard kelsa ham shodlik o'rnida qabul eting!





Hotami Toyiga bir ko'ngli ochiq odam dedi:

– Ey, himmatda erkin tabiat kishi, saxiylik kaf-tingga odat bo'lganidan buyon o'zingga o'xshagan kishini hech ko'rdingmi?

U dedi:

– Bir kun men hamma uchun yig'in qildim. Unga cho'ldagi odamlarning hammasini chaqirdim. Pishirish uchun yuzta tuya qurbon qilindi; so'yilgan qo'y-qo'zilarning ham son-sanog'i yo'q edi. Bazm bo'lib turgan vaqtida birpas havo olgim kelib, dasht tomonga chiqdim. Aylanib yurib, mehnatda ezilgan bir qari cholni ko'rdim. U orqasiga bir quchoq tikon-o'tin ortgan edi. Gavdasini u yuk egib, vujud uyiga hassadan ustun tirkagan edi. Har qadam tashlaganda, birpas to'xtab, har dam olganda ma'lum bir fursat o'tardi. U chekayotgan azob o'ti ko'nglimni yondirib rahm-shafqat bilan unga shunday xitob qildim:

– Ey qaddini mashaqqat yuki bukkan, tanasi-da g'am tikanlari o'rnashgan odam! Dashtda yu-rib xabaring bo'lmadimi? Nega Hotamning uyiga bormading. U hammani o'zining uyiga chaqirib yaxshi-yu yomonni bugun mehmon qilmoqda-ku. O'tinni tashla, izzat gulshaniga bor, mashaqqat chekib o'ltirmay, tur, chaqiriqqa bor!

U mening uning ahvoldidan iztirob chekkanimni tushunib, bosh ko'tarib kuldi-yu, shunday javob berdi:



– Ey, oyog‘ini ochko‘zlik band etgan, bo‘yniga g‘araz va qizg‘onchiqlik sirtmoq boylagan, ey g‘ayrat vodiysiga qadam bosmagan, himmat qal’asiga bayroq tikmagan odam, sen ham bu tikan tashish azobini tortib ko‘r. Hotami Toyi minnatini esa torta berma. Qiynalib, mashaqqat bilan bir tanga topish birov bergen xazinadan yaxshiroqdir.

Uning so‘zlari shunday o‘rinli ediki, shuning uchun ham uning himmati menikidan ortiq edi.

Ey Navoiy, agar senda himmat bo‘lsa, Hotami Toyi ham senga quldir.

Ey soqiy, karam izhor qilib, bir qadah tut, xayr-u ehson nimaligini Hotamga ko‘rsatib qo‘y. Bizda may sotib olish uchun pul kam; bizda yetishmovchilik ekan, sendan karam bo‘lsin.



*E*shidimki, saodatmand shoh, to'rt ulus hukmdori Amir Temur Ko'ragon Hindiston fathi uchun jang olib borar edi. Taqdir unga nusrat berib, dushman ko'ngliga vahima soldi. Chunki dushmanlar kofir qavmidin edilar. Hukmdor ularni qatli om qilishni buyurdi. Har bir askar dushman boshini kesar, qon daryo bo'lib oqar, boshlar esa daryo ichidagi toshga o'xshar edi. Shu mahalda hindlardan ikki vafodor do'stga navbat keldi. Bir askar ularning birini chopmoqchi edi, sherigi do'stining boshini qilich ostida ko'rib o'z boshini tutdi va "Agar maqsadlaring bosh olish bo'lsa, uning o'rniga mening boshimni ol", – dedi. Askar unisiga o'girilgan edi, bunisi ham boshini tutib, u ham shu iltimosni qildi. Askar birini chopay desa, ikkinchisi meni chop deb, uning oyog'iga bosh qo'yari edi. Askar achchiqlanib, "Ikkingizni ham chopaman" desa, har ikkisi ham boshini tutar edi.

Shu payt "Omonlik berilsin!" degan buyruq yangradi. Ularning bunday vafodorligini ko'rib, shoh shunday buyruq bergen edi. Ularning sadoqati tufayli barcha xaloyiq ham omonlik topdilar.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 112.
2. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 1-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 804.
3. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 2-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 768.
4. Alisher Navoiy. Badoye ul-vasat. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 3-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 768.
5. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 4-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 844.
6. Alisher Navoiy. Devoni Foni. Qasoid. Mufradot. Xamsat ul-mutahayyirin. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 5-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 860.
7. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 6-jild. Xamsa: – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 812.
8. Alisher Navoiy. Xamsa. Layli va Majnun. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 7-jild. Sab’ai sayyor. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 696.
9. Alisher Navoiy. Xamsa: Saddi Iskandariy. Tarixi anbiyo va hukamo. Tarixi muluki Ajam. To‘la



- asarlar to‘plami. 10 jildlik. 8-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 704.
10. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Majolis ul-nafois. Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfriya. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 768.
 11. Alisher Navoiy. Arba’in. Munojot. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 684.
 12. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar: A.Tilavov, I.Saydullayev. – T.: “Sano-standart”, 2016. – B. 520.
 13. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. G‘aroyib us-sig‘ar. 1-devon. – T.: “Tamaddun”, 2011. – B. 785.
 14. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob. 2-devon. – T.: “Tamaddun”, 2011. – B. 731.
 15. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Badoye ul-vasat. 3-devon. – T.: “Tamaddun”, 2011. – B. 739.
 16. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. 4-devon. – T.: “Tamaddun”, 2011. – B. 779.

MUNDARIJA

| | |
|--------------------------------------|-----|
| Navoiyga ehtirom | 6 |
| Alisher Navoiy buyuklar nazdida..... | 10 |
| G'azallar | 25 |
| Ruboiylar..... | 50 |
| Qit'alar | 60 |
| Qalbga malham o'gitlar..... | 78 |
| Alisher Navoiy hikoyatlari..... | 98 |
| Adabiyotlar ro'yxati | 108 |

Adabiy-badiiy nashr

**QUYOSHLIQ ISTASANG,
KASBI KAMOL ET...**

Muharrirlar:

Gulchehra Bozorova, Ra'no Payzullayeva

Musahhihlar:

Noila Yuldasheva, Feruza Namozova

Sahifalovchi-dizayner:

Akbarali Mamasoliyev

Texnik muharrir:

Rustam Isoqulov



SAHHOF

100129. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

☎: +99899 111-94-62

📠: +99894 659-94-62



821.512.133-1

84(5O')

Q 87

Q 87

Quyoshliq istasang, kasbi kamol et... [Matn]:

A.Navoiy ijodidan namunalar / *To'plovchilar: X. Raupov, S. Radjabov va b.* – Toshkent: Sahhof, 2021. - 112 b.

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')

ISBN 978-9943-6666-0-3

Chop etishga 2020-yil 18-fevralda ruxsat etildi.
Bichimi 70x84 $\frac{1}{32}$. Shartli bosma tabog'i 5,88.

“Calisto MT” garniturasi. Ofset qog'oz.

Adadi 15 000 nusxa. Buyurtma № _____.

